



INTELLEKTUAL MULK VA SUN'IY INTELLEKTNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Mustafoev Maqsud Amrullo o'g'li¹

¹ "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi Huquqiy targ'ibot
ishlarini amalga oshirish bo'limi katta maslahatchisi E-mail:
mustafoevmaksud@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5759321>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021
Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021
Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Sun'iy intellekt,
Intellectual mulk, BIMT,
Raqamli O'zbekiston, IT-
park, Bir million
dasturchi, Yoshlar
texnoparklari, Face-ID,
Maxsus rejim

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt tushunchasi, kelib chiqish tarixi va rivojlanishi, shuningdek sun'iy intellektning hayotimizda tutgan o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Bundan tashqari, intellektual mulk va sun'iy intellektning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinib, tahlil natijalariga asoslangan holda tegishli xulosalar berilgan. Ushbu sohani rivojlantirish bilan bog'liq O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizning rivoji yo'lida iqtisodiy globalizatsiyasi bilan bir qatorda intellektual mulk huquqi va uning himoyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, intellektual mulk himoyasi davlatning innovatsiyalar orqali o'z sanoatini yuksaltirishdan tashqari, xorijdan texnologiya transferi, investitsiya qilish va aholini ish bilan ta'minlash sohasida o'ziga xos "kalit" bo'ladigan vosita hisoblanadi. Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan sharoitlarni yaratish, intellektual mulkning

ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida 2020-yilni – "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi. Ushbu tashabbusni O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi va raqamli iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiquvchi fundamental qadam sifatida baholashimiz mumkin. Chunki, ushbu yil dasturi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilishi bilan bir qatorda hayotimizga intellektual mulk va



sun'iy intellektning joriy etilishiga sabab bo'luvchi islohotlarning asosi bo'lib xizmat qildi.

Inson tafakkuri va izlanishlari mahsuli bo'lmish intellektual mulk samarasini bugun barcha jabhalarda ko'rishimiz mumkin. Intellektual mulk inson tomonidan yaratiladigan ijodiy aqliy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Intellektual mulk iqtisodiyot rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biridir. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellektual mulk rivojiga kata e'tibor qaratilgan. Shu sababli, ularning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshilangan, intellektual mulkning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi keskin ortgan. Intellektual mulk Yevropa ittifoqida yalpi ichki mahsulotning 45 % ni, Xitoyda 12 % ni, Rossiyada esa 7 % ni tashkil etadi. Afsuski, mamlakatimizda bu boradagi ishlar qoniqarli yo'lga qo'yilgan deya olmaymiz. Buni 2019-yilda mamlakatimizda 400 yaqin ixtirolar, 110 ta foydali model, 170 ta sanoat namunasi va 36 ta seleksiya yutug'i ro'yxatga olingan bo'lsa, ulardan atigi 43 ta ilmiy ishlanma tijoratlashtirilganligi misolida ko'rishimiz mumkin.¹

Sun'iy intellekt tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, uning universal ta'rifi mavjud emas. Biroq, uni inson aqlini talab qiladigan ishlarni bajarishi mumkin bo'lgan mashina va tizimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan funksional mexanizm sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Sun'iy intellektlar vazifalarni mashinalar orqali tez va sifatli bajarish hamda jarayonga inson

aralashuvini kamaytirish maqsadida yaratiladi.

Sun'iy intellektning vujudga kelish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, sun'iy intellekt atamasi birinchi marta 1956-yilda qo'llanilgan va Dartmutdagi sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqot loyihasi asosida paydo bo'lgan. O'sha vaqtdan beri ixtirochi va tadqiqotchilar sun'iy intellekt bilan bog'liq 1,6 milliondan ortiq ilmiy ishlarni nashr etdilar va sun'iy intellekt bilan bog'liq 340 mingga yaqin ixtirolar uchun patent buyurtmalarini topshirdilar. 2002-2017-yillar oralig'ida sun'iy intellekt sohasida chop etilayotgan maqolar sonining yillik o'sish sur'ati 5,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, olingan patentlarning yillik o'sish sur'atlari esa qariyb 28 % ni tashkil etdi. 2030-yilga kelib, sun'iy intellektning global iqtisodiyotdagi ulushi deyarli 15 trillion dollarga yetishi taxmin qilinmoqda.²

Sun'iy intellekt hozirgi kunga qadar bir nechta rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan:

1. 1956-yil – “sun'iy intellekt” atamasining vujudga kelishi;
2. 1956-74-yillar (oltin yillar) – “sun'iy intellekt”ning davlat tomonidan moliyalashtirilishi va “sun'iy intellekt” bilan bog'liq patentlar sonining ko'payishi;
3. 1974-80-yillar – turli xil taxminlar asosida “sun'iy intellekt”ning imkoniyatlari cheklanishi;
4. 1980-87-yillar – Ekspertlar tomonidan yangi bilimlarga asoslangan

¹ <http://www.ima.uz/uz/nashrlar/yillik-hisobot>

² https://patentscope.wipo.int/en/artificial_intelligence/



optimistik fikrlar asosida "sun'iy intellekt"ga diqqat qaratilishi;

5. 1987-93-yillar – ixtisoslashgan uskunalarning sanoat kirib kelishi natijasida "sun'iy intellekt"ning yana bir bor cheklanishi;

6. 1993-2011-yillar - ma'lumotlar va kompyuter texnologiyalariga talabning oshishi natijasida "sun'iy intellekt"ning muvaffaqiyat qaytishi;

7. 2012-yildan - bugungacha – "sun'iy intellekt" to'g'risidagi ko'proq ma'lumotlar, ularning sonini va yangi yutuqlarining soni ko'payishi (Sun'iy intellekt patentlarining tezkor oshishi).³

So'nggi paytlarda sun'iy intellekt tizimlari ilgari bajarilgan va faqat odamlarga tegishli bo'lgan vazifalarni bajarish maqsadida yaratildi. Misol sifatida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan "Keyingi Rembrant" loyihasini keltirishimiz mumkin. Unda sun'iy intellekt rassomning mavzusi va uslubini takrorlaydigan mutlaqo yangi rasmlarni yaratdi. Bundan tashqari, ikkalasi ham patentlanishga loyiq bo'lgan va sun'iy intellekt ilovalari tomonidan yaratilgan ixtirolarni misol sifatida olishimiz mumkin.

Bugungi kunda elektron hisoblash mashinalarining kuchi va aloqa texnologiyalarining jadal rivojlanishi katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va almashish imkonini berdi. Sun'iy intellektning texnologik rivojlanishi ko'plab

yangi sohalarni vujudga kelishi va rivojlanishi uchun keng yo'l ochmoqda.

BIMT Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi bo'lib, a'zo davlatlar uchun intellektual mulk, sun'iy intellekt, siyosat, axborot va hamkorlik xizmatlari bo'yicha global forum hisoblanadi. Barcha mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi uchun ixtirolar va ijodkorlikni targ'ib qilish vakolatining bir qismi sifatida, a'zo davlatlar BIMTdan intellektual mulk va sun'iy intellekt siyosatini muhokama qilish uchun forum o'tkazishni so'rashdi.⁴

"BIMTning 2019-yildagi texnologiya tendensiyalari – Sun'iy intellekt" yig'ilishida nazariyadan amaliy qo'llanishga o'tayotgan sun'iy intellekt bilan bog'liq ixtirolar namoyish etildi. Sun'iy intellekt sohasidagi o'zgarishlarni tezlashtirishga yordam bergan bir qator omillar mavjudligi aytib o'tildi. Uchrashuvda BIMT Bosh deirektori Frensis Garri "Sun'iy intellekt hayot tarzimiz va ishimizni o'zgartirish orqali dunyoga chuqur ta'sir ko'rsatadigan yangi raqamli chegaradir" deya ta'kidlab, BIMT muvozanatli va samarali xalqaro intellektual mulk tizimini rivojlantirishga rahbarlik qilishini va barchaning manfaati uchun innovatsiyalar va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlashini e'lon qildi.⁵

Ushbu hamkorlikni amalga oshirish maqsadida 2019-yil 13-dekabrda BIMTning intellektual mulk va sun'iy intellekt bo'yicha ikkinchi tur muhokamasi bo'lib o'tdi. Ushbu muhokamada **BIMT Kotibiyati tomonidan**

³ World Intellectual Property Organization 34, chemin des Colombettes, P.O. First published 2019. Box 18 CH-1211 Geneva 20, Switzerland ISBN: 978-92-805-3007-0

⁴ https://www.wipo.int/about-ip/en/artificial_intelligence/conversation

⁵ https://www.wipo.int/about-ip/en/artificial_intelligence/news/2020/news_0008



tayyorlangan "Intellectual mulk va sun'iy intellekt siyosatiga bag'ishlangan Konseptual hujjat" qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) intellektual mulkning sun'iy intellekt bilan bevosita bog'liq bo'lgan aspektlarni ko'rib chiqishni boshladi. Bunday tadbirlar quyidagi bir qator sohalarda amalga oshirilishi belgilandi:

(a) Intellectual mulkning ma'muriy jarayonlarini boshqarishdagi sun'iy intellekt. Sun'iy intellekt asosidagi dasturiy yechimlar himoyasi bilan bog'liq ma'muriy jarayonlarni boshqarishda tobora ko'proq foydalanilmoqda. Bunday dasturiy yechimlarning ikkita misoli - WIPO Translate va WIPO Brand Image Search, matnlarni avtomatik tarjima qilish va tasvirni aniqlash uchun sun'iy intellekt asosidagi algoritmlardan foydalanadi. Dunyo bo'ylab ba'zi intellektual mulk ofislari o'zlarining sun'iy intellekt asosidagi dasturiy yechimlarini ishlab chiqdilar va joriy qildilar;

(b) Intellectual mulk va Sun'iy intellekt strategiyalarini almashish markazi. Dunyoning ko'plab davlatlari uchun sun'iy intellekt ularning strategik potensialining tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Davlatlar sun'iy intellekt potensialini rivojlantirish bo'yicha strategiyalarni, shuningdek, o'tkir qon tomir kasalligini boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rmoqdalar. Tashkilotga a'zo davlatlar o'zlarining yordami bilan sun'iy intellekt va intellektual mulk bilan bog'liq

asosiy davlat hujjatlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasini yaratishni so'rashdi;

(c) Intellectual mulk siyosati. Faoliyatning uchinchi yo'nalishi - sun'iy intellektning tobora keng qo'llanilayotgan ko'p maqsadli texnologiyaga aylanishi natijasida yuzaga keladigan intellektual mulk siyosati bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolar ro'yxatini tuzishga qaratilgan ochiq va inklyuziv jarayonni yaratish.

Muhokama qilinadigan masalalar quyidagi mavzularga bo'lingan:

- (a) patentlar
- (b) mualliflik huquqi
- (c) ma'lumotlar
- (d) namunalar
- (e) texnologik bo'shliq va salohiyatni oshirish
- (f) Intellectual mulk bo'yicha ma'muriy qarorlar uchun javobgarlik masalasi.⁶

Hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalaridan eng ko'p foydalaniladigan hayotimizning asosiy sohalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Telekommunikatsiya: kompyuter tarmoqlari, internet, radio va televizion eshittirish, telefon, videokonferensiyalar;
2. Transport: aerokosmik, avionika, avtonom transport vositalari, transport vositalarini aniqlash, transport muhandisligi;
3. Ilm-fan sohasi: bioinformatika, bioinjeneriya, biomexanika, farmasevtika,

⁶ https://www.wipo.int/about-ip/en/artificial_intelligence/news/2019/news_000



genetika, neyrobiologiya, tibbiy informatika, fiziologik ko'rsatkichlar monitoringi, jamoat salomatligi.

Yuqoridagi ma'lumotlar intellektual mulk va sun'iy intellekt nafaqat bir biri uchun qay darajada muhimligini, balki hayotimiz uchun qanday ahamiyat kasb etishi va uning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganligini ko'rsatib beradi.

2021-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Qarorga asosan, tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisining faqat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilishiga nisbatan qonunchilikdagi mavjud cheklovlar bekor qilinadigan bo'ldi. Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini davlat ro'yxatiga olish muddatlarini keskin qisqartirish imkoniyatlarini yaratuvchi tezkor ekspertiza tartibi jorai etildi.

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Intellektual mulk agentligi faoliyatida intellektual mulk obyektlariga talabnomalarni davlat ekspertizasidan o'tkazish jarayonida autsorsing usullarini qo'llash tajribasi yo'lga qo'yildi. Eksport ulushi umumiy tovar aylanmasining 60 % dan ortig'ini tashkil etadigan eksport qiluvchi, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun tovar belgilarini 2021-2022-yillarda milliy ro'yxatdan o'tkazish bepul amalga

oshiriladi. Bundan tashqari, eng yaxshi intellektual mulk obyektlari yaratuvchilarini Agentlik tomonidan Butunjahon intellektual mulk tashkilotining maxsus mukofotlariga taqdim etish bo'yicha tavsiyalar kiritildi. Agentlik tomonidan bir yilda bir marta "Eng yaxshi intellektual mulk obyekti" tanlovi tashkillashtirilib, tanlov g'oliblariga tegishli bazaviy hisoblash miqdorining 30, 25, 20 baravari miqdorida pul mukofotlari topshirilishi belgilandi.⁷

Bugungi kunda qon bosimimizni o'lchaydigan va sarflayotgan energiyamizni hisoblab berayotgan "Aqlli soatlar", bizga GPS manzili bo'yicha yo'l ko'rsatayotgan "Aqlli xaritalar", shuningdek ma'lumotlarni qayta ishlovchi turli qidiruv dasturlari hamrohimizga aylanib bormoqda.

So'nggi yillarda yurtimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ularni keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish, sohani jahon talablari darajasida rivojlantirishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan harakatlar jadallashmoqda. Jumladan, faoliyati kengayib borayotgan "IT park"lar, "Bir million dasturchi", "Yoshlar texnoparklari" mazkur sohaning barqaror rivojiga juda katta umid uyg'otadi.

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Koreya, Kanada kabi 30 dan ortiq davlatlarda sun'iy intellekt rivojlantirish strategiyalari qabul qilingan.

Bu borada 2021-yil 17-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy

⁷ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2021-y., 07/21/4965/0074-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y.,

06/21/6218/0398-son, 23.08.2021-y.,
06/21/6280/0811-son.
<https://www.lex.uz/ru/docs/-5248263>



etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Shuningdek, ushbu qarorga muvofiq, sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qamrovda qo'llash maqsadida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilindi.

Ushbu qaror asosida mamlakatimizda quyidagi sohalarida sun'iy intellekt texnologiyalari qo'llanilishi belgilandi:

- *qishloq xo'jaligi sohasida:* yerni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida tuproq va qishloq xo'jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikasi, shu jumladan kombaynlar ishini monitoring qilish;

- *bank sohasida:* tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun;

- *moliya sohasida:* budget xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug'urta to'lovlari, shuningdek, nafaqa to'lovlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun;

- *transport sohasida:* lokomotivlarni boshqarish jarayonida ularning harakatini kuzatib borish va xavfli vaziyatlarda mashinistlarni ogohlantirishda, jamoat transporti harakatini tahlil qilish va ularning optimal yo'nalishlarini aniqlashda, shuningdek,

avtomobil harakatini va transportdagi tirbandliklarni monitoring qilishda;

- *sog'liqni saqlash sohasida:* inson o'pkasining kompyuter tomografiyasi tahlili asosida pnevmoniyani aniqlash hamda mammografiya tahlili asosida ko'krak bezi saratoniga ilk bosqichda tashxis qo'yish uchun;

- *elektron hukumat sohasida:* elektron davlat va moliya xizmatlarini ko'rsatishda foydalanuvchilarni masofadan turib bimetrik identifikatsiyalash (Face-ID) uchun.⁸

Ushbu qaror bilan 2021-2022-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dastur doirasida sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini va normativ-huquqiy bazasini ishlab chiqish, davlat xizmatlarini sifatini oshirishda bundan keng foydalanish, sohada innovatsion ishlanmalarning mahalliy ekotizimini yaratish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Innovatsion rivojlanish vazirligi sun'iy intellekt sohasida ilmiy-texnik tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlashga mas'ul etib belgilandi. Shuningdek, Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilishi belgilandi hamda 2021-yil 31-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 475-son qarori asosida mazkur Institut faoliyati tashkil etildi. Bundan tashqari, 15 ta universitetda sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlarida va davlat boshqaruvi tizimida qo'llash

⁸ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021-y., 07/21/4996/0127-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y.,

07/21/5199/0721-son.
<https://www.lex.uz/ru/docs/-5297046>



bo'yicha maxsus kurslar tashkil etiladigan bo'ldi.

Yuqoridagilardan tashqari, 2021-yil 26-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, eksperimental innovatsion tadqiqotlar doirasida Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejim joriy qilinadi. Shuningdek, maxsus rejim talabgorlari uchun tajriba-sinov loyihalari doirasida faoliyatiga ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlarni tezlashtirilgan va soddalashtirilgan holda olish tizimi joriy qilinadi. Bunda:

- arizalar 5 ish kuni ichida tezlashtirilgan tartibdako'rib chiqiladi;
- ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlarni olish uchun talab etiladigan hujjatlar ro'yxati vakolatli davlat organi tomonidan qisqartiriladi;
- tegishli hujjatlarni olish uchun belgilangan to'lov miqdorlari ikki baravarga kamaytiriladi.

Maxsus rejim ishtirokchilariga tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish doirasida IT-park rezidentlariga berilgan imtiyoz va preferensiyalar tatbiq etiladi. Shuningek, o'z xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga ketgan

xarajatlari tegishli tartibda davlat tomonidan kompensatsiya qilinadi.⁹

Maxsus rejim faoliyatining muddati 5 yilni tashkil etadi. Tajriba-sinov loyihalari 1 yildan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, intellektual mulk va sun'iy intellektga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi koronavirus pandemiyasidan so'ng yuzaga kelgan sharoitida odamlarning mehnatini sun'iy intellekt asosida bajarishga bo'lgan talab sezilarli ravishda oshdi. Bu esa sun'iy intellekt yordamida odamlar o'rtasidagi kontakti kamaytirish orqali kasallikni tezroq yengishga hissa qo'shishdan tashqari, ish hajmini tez va sifatli bajarish imkonini beradi. Biroq, sun'iy intellekt keng ko'lamda qo'llashdan oldin uning juda katta ishsizlik hajmini va bir qator iqtisodiy muamolarni keltirib chiqarishi mumkinligini inobatga olish lozim.

Fan va texnologiyaning har qanday yutug'i insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. Mamlakatimizda sun'iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining maqsadi ham aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va fuqarolarning turmush darajasini rivojlantirish bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2021-y., 07/21/4965/0074-son; Qonunchilik

⁹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 07/21/5234/0826-son. <https://lex.uz/docs/-5603319>



ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son, 23.08.2021-y., 06/21/6280/0811-son. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5248263>;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021-y., 07/21/4996/0127-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 07/21/5199/0721-son. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5297046>;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 07/21/5234/0826-son. <https://lex.uz/docs/-5603319>;

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 475-son qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2021-y., 09/21/475/0737-son. <https://lex.uz/docs/-5544451>;

5. World Intellectual Property Organization 34, chemin des Colombettes, P.O. First published 2019. Box 18 CH-1211 Geneva 20, Switzerland ISBN: 978-92-805-3007-0.

Internet saytlari:

1. <https://lex.uz>
2. <https://www.norma.uz>
3. <https://patentscope.wipo.int>
4. <https://www.wipo.int>
5. <https://review.uz>
6. <http://www.ima.uz>